

Natijalar: Tadqiqotlar ekstraktlar tarkibini tahlil qilish va faol moddalarning miqdorini aniqlash bilan boshlandi. Quruq ekstraktlar tarkibidan askorbin kislotasi, flavonoidlar, glitserizin kislotasi va oshlovchi moddalarining borligi aniqlanib, bu moddalar yuqori nafas yo'llari yallig'lanishlarini davolash uchun dori vositasini ishlab chiqishda muhimdir, chunki ular balg'am chiqishini rag'batlantiradi va organizm immunitetini stimulyatsiya qiladi. Miqdoriy tadqiqotlar natijasida askorbin kislotasi miqdori 9%, oshlovchi moddalar 16%, glitserizin kislotasi 7%, bioflavonoidlar esa 3,14% ekanligi aniqlangan. Ushbu ma'lumotlar faol moddalarning tabletkadan chiqish vaqtini aniqlash uchun qo'llanilgan. Miqdoriy tahlildan keyin substansiyaning texnologik va fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari o'rganilishi amalga oshirildi. Texnologik ko'rsatkichlar fraksion tarkib, sochiluvchanligi, sochiluvchan zichligi, tabiiy og'ish burchagi va presslanuvchanliklar aniqlandi. Fizik xususiyatlar esa erish, namlik miqdori va gigroskopikligi o'rganildi. Natijada, substansiyamiz gigroskopik moddalar guruhiga kirishi, sochiluvchanligi va tabiiy og'ish burchagi qoniqarsiz natijalarni ko'rsatdi. Biroq, presslanuvchanligi va sochiluvchan zichligi ijobiy natijalar ko'rsatdi. Gigroskopiklikni kamaytirish va sochiluvchanlikni yaxshilash uchun mos yordamchi modda taklif etildi, yordamchi modda sifatida tozalangan suv, kartoshka kraxmali, laktoza, kaltsiy stearate (CaS), mikrokrestallik tselluloza (MKS), natriy kraxmal glikolyat (NaKG), polivinilpirrolidon va etil spirtining 70-96% quvvatliklari taklif etildi.

Tadqiqotlar olib boorish natijasida quyidagi tarkibning xossalari eng muqobil chiqqanligi sababli tabletkadan uchun ushbu tarkibda qolishga qaror qildik: Quruq ekstraktlar aralashmasi – 3 gr, MKS – 1 gr, NaKG – 1 gr, 70% li etil spirti – nam massa xosil bo'lguncha, CaS – 0,05 gr gacha.

Xosil qilingan tabletkalarni fizik kimyoviy ko'rsatkichlari o'rganilishi natijasida granulyatsiyalash bilan teshigining diametric 500 mkm bo'lgan elakdan o'tkazib maqsadga muvofik granulalar xosil bo'ldi, sochiluvchanlik ijobiy tomonga siljidi va gogroskopikligi ham boshlang'ich natijadan 10% ga kamayganligi kuzatildi, tabletkaning parchalanuvchanligi 13 daqiqani tashkil etdi, tasir etuvchi moddalarning ajralib chiqishi 15 daqiqada 70-73% oralig'ini tashkil etgan bo'lsa, 20-daqiqada 81-85% ni tashkil etdi. Tabletkaning ishqalanishga bo'lgan qattiqligi 99 ($\pm 0,2$)% ni sinishga bo'lgan qattiqligi esa 85 ($\pm 5,0$) N ni ko'rsatdi. Turg'unligini o'rganishda 4 xil qadoqdan tabiiy usulda es kirish metodidan foydalanildi. Qadoqlar sifatida shaffof shisha, qo'ng'ir rangli shisha, qo'ng'ir rangli platmassa qadoqlar va yacheykali blister qadoqdan foydalanildi. Ular orasida 12 oy davomida saqlanish muddatida eng yaxshi natijani ko'rsatgan qadoqlar sifatida qo'ng'ir rangli shisha va qo'ng'ir rangli platmassa qadoqlar bo'ldi.

Xulosa: tadqiqotdan shu aniqlandiki, boshlang'ich xom ashyolar sochiluvchanlik va gigroskopiklik ko'rsatkichlari bo'yicha talab darajasida bo'lmaganligi sababli tabletkadan tayyorlash uchun yordamchi moddalar ishlatish van am donadorlash usulidan foydalanishga ehtiyot tug'dirdi. Tanlangan tarkib asosida olingan tabletkalar barcha xossalari bo'yicha yaxshilanganligi va tarkibidan ta'sir etuvchi moddalarning ajralib chiqishi talab darajasida bo'lgani texnologiya tog'ri tanlanganidan dalolat beradi. Qadoq turini tanlashda ham shisha qo'ng'ir qadoq ham plastmassa qo'ng'ir qadoq deyarli 1 xil natijani bergani iqtisodiy jihatdan plastmassa qadoqni tanlashga turtki bo'ladi.

ITTIKANAK O'SIMLIGI ASOSIDA TAYYORLANGAN YIG'MADAN SUYUQ EKSTRAKT OLIISH TEXNOLOGIYASIGA OID IZLANISHLAR

Erkaeva Sh.Q., Pazilbekova Z.T., Abdullaeva R.A.

Toshkent farmasevtika instituti

Dolzarbli: Dorivor o'simliklar xom ashyosini chuqur qayti ishlash orqali turli fitopreparatlarni ishlab chiqarish O'zbekiston Respublikasida farmasevtika sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi "Dorivor o'simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-139 - sonli Farmonida qator imtiyozlar berilgan. Jumladan, dorivor o'simliklar xom ashyosidan biologik faol qo'shimchalar, essensiyalar va ekstraktlar ishlab chiqarish uchun olib kelinadigan uskunalari, butlovchi va ehtiyot qismlari bojxona bojidan ozod qilinib, ularni olib kirishda qo'shimcha qiymat solig'ini kechiktirib to'lash imkoniyati berilgan hamda mahsulotlarni eksport qilishda sarflangan transport xarajatlarining 50 foizigacha qismi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan qoplanishi belgilab qo'yildi.

Tadqiqotning maqsadi: Ushbu tadqiqotlardan maqsad, mahalliy o'simliklar asosida tayyorlangan allergiyaga qarshi yig'madan suyuq ekstrakt olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

Usul va uslublar: tadqiqotlar uchun "Gerbofarm" xususiy korxonasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan "Gerborn" ozuqaviy biologik qo'shimcha (OBQ) tarkibidan foydalanildi. Yig'ma tarkibi ittikanak va dalachoy o'simliklarining yer ustki qismlari, gazanda va yalpiz o'simliklarining barglaridan iborat bo'lib, ular 3-5 mm gacha o'lchamda maydalab olindi. Yig'madan suyuq ekstraktlar 20%, 40% va 70% li etil spirtida maseratsiya va reperkolyatsiya usullarida 1:1 va 1:2 nisbatlarda laboratoriya sharoitida olindi.

Natijalar: "Gerborn" OBQ yig'masidan 20% li etil spirtida xar ikkala usulda olingan suyuq ekstraktlarda loyqalanish hosil bo'lib, saqlash jarayonida cho'kma tushdi va suyuq ekstraktlar tashqi ko'rinishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi DF I (O'ZR DF I) talablariga javob bermadi. Shuning uchun keyingi izlanishlarda ushbu

suyuq ekstraktlar taxlil qilinmadi. 40% va 70% li etil spirtida maseratsiya va reperkolyatsiya usullarida olingan suyuq ekstraktlar yashil-qo'ng'ir rangli, o'ziga hos hidli tiniq suyuqliklar bo'lib, saqlash jarayonida biroz loyqalanishi mumkin. Olingan bu suyuq ekstraktlar tashqi ko'rinishi bo'yicha O'zR DF I talablariga javob beradi. Shuning uchun, keyingi izlanishlarda 40% va 70% li etil spirtida maseratsiya va reperkolyatsiya usullarida olingan suyuq ekstraktlarning quruq qoldiq miqdori O'zR DF I talablari bo'yicha o'rganildi. Tajriba natijalari jadvalda keltirilgan.

№	Ekstraksiya usuli	Ekstragent	Gidromodul	Quruq qoldiq miqdori, %
1.	Maseratsiya	20% li etil spirti	1:2	DFI talabiga javob bermaydi
2.	Maseratsiya	40% li etil spirti	1:2	4,28
3.	Maseratsiya	70% li etil spirti	1:2	2,32
4.	Reperkolyatsiya	20% li etil spirti	1:1	DFI talabiga javob bermaydi
5.	Reperkolyatsiya	40% li etil spirti	1:1	6,90
6.	Reperkolyatsiya	70% li etil spirti	1:1	5,24

Xulosalar: "Gerborn" OBQ yig'masidan maseratsiya usuli bilan suyuq ekstrakt olishda ko'proq ajratuvchi sarflangani uchun, gidromodul 1:2 nisbatda qo'llanildi. Reperkolyatsiya usulida 40% va 70% li etil spirtida olingan suyuq ekstraktlarning quruq qoldiq miqdori ko'proq (6,90% va 5,24%), maseratsiya usulida esa, nisbatan kamroq (4,28% va 2,32%) natija ko'rsatdi. Keyingi izlanishlar uchun "Gerborn" yig'masidan reperkolyatsiya usulida 40% li etil spirtida olingan suyuq ekstrakt istiqbolli deb topildi.

STUDY OF THE TECHNOLOGICAL PROPERTIES OF TABLET SUBSTATIONS "PODAGRIN"

Ernazarov A.M., Yunusova H.M.

Tashkent pharmaceutical institute

Relevance: gout is a disease that occurs as a result of metabolic disorders, characterized by the accumulation of urate salts and uric acid crystals in the form of sodium monourate in various tissues of the body. The basis of this disease is the accumulation of uric acid in the body and its impaired excretion by the kidneys.

The development of complex dosage forms, as well as their mechanism of action, is associated with the manifestation of the properties of regulators of inflammation and metabolism in the body, as well as water-electrolyte balance and acid-base balance.

Citric acid is used as a substance that improves energy metabolism in the Krebs cycle in the body. When citrus fruits are consumed, it activates the Krebs cycle and helps to accelerate metabolism. Sodium bicarbonate is a regulator of water-electrolyte balance and acid-base balance in the body. Diclofenac includes the treatment of inflammatory diseases of the musculoskeletal system, especially arthritis, osteoarthritis, and gout.

The purpose of the research: to study the technological properties of substances with a complex composition and to develop drug forms with high efficiency.

Materials and methods: from the technological properties of the obtained substations, indicators such as sorting composition, scattering, scattering density, free deposition angle, porosity and residual moisture were studied. Scientific research was carried out using generally accepted methods of physical and chemical and technological properties of substations.

Results: the forms of substations obtained on the basis of scientific research are different in appearance, consisting of crystals of anisodiametric, isodiametric, polyhedral, cubic-shaped appearance. The microscopic structure of sodium bicarbonate, diclofenac sodium and citric acid is cubic, prismatic crystals when viewed, with an average height of. 0,10 - 0,15- 0,33 - mkmni, with a width of. 0,031 - 0,069- 0,352 - mkmni, form factors -0,938 - 2,17 - 3,22 mkmni, formed. Sorting contents -1000+500 μ m sieve pack 38.55 -37.65 -2.78% s -160 in the MKM interleaved package 1,10 - 1,24 - 2,6% is a high percentage in sieves of large sizes, a relatively low percentage in a small sieve, and they differ greatly from each other.

When the technological properties of substations are studied on the basis of research, diclofenac contains sodium, sodium bicarbonate and citric acids, solvency 1,85-6,25-12,28 *10⁻³ KG / s, scattering density 625,10 – 714,20 - 989,25 kg / m³, free hairpin angle 35,45 – 40,75 – 70,35 indicators such as grade, pressability 30.45-75.58 -88.25 N, residual moisture 1,35 – 1,60 – 6,75%, of which was studied on the basis of scientific research.

Conclusion: the composition of sorting substations based on the results of the experiment, based on the results of scientific research, was not distributed among themselves with respect to the sets of sieves, which, since the crystallinity forms in the composition of the substations varied, the distribution in large-sized sieves moistened a high percentage. In order to change the technological properties to the positive side, based on auxiliary substances, fillers and binders, the application of the wet granulation method will be appropriate for the purpose